

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA ZAMIRA MUXTOROVNA

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM
XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.05. – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Abdullayeva Zamira Muxtorovna

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari..... 3

Абдуллаева Замира Мухторовна

Тенденции развития услуг высшего образования в условиях цифровизации экономики..... 27

Abdullayeva Zamira Mukhtorovna

Directions for the development of higher education services in the context of digitalization of the economy 53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA ZAMIRA MUXTOROVNA

**IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM
XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

08.00.05. – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt4918 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Shadiyeva Gulnora Mardiyevna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ochilov Akram Odilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi DSc.03/25.12.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel./faks: (99866) 233-38-72, (99866) 231-12-53; E-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, A.Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 231-12-53; E-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi №___ raqamli reestr bayonnomasi).

M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyotning raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan kechayotgan bir vaqtda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy va raqobatbardosh oliy ta'lim tizimini shakllantirish, talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasini aniqlash hamda ta'lim sifati monitoringida raqamli tadqiqot usullaridan foydalanish, oliy ta'lim muassasalari resurs salohiyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. "Hozirgi vaqtda xalqaro ta'lim xizmatlari bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollaridan ko'proqni tashkil etib, shundan 50-70 mlrd. AQSh dollari oliy ta'lim muassasalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Xususan, AQSh universitetlari mablag'larining o'rtacha hajmi 1,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etmoqda"¹. Bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari reytingini oshirish orqali ularning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlar rivojlanishining omillari, xususiyatlari va shart-sharoitlarini aniqlash, oliy ta'lim xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlari samaradiligini baholash usullarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasa (OTM)larida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalari raqamli infratuzilmasini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalari resurs salohiyatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, ta'lim sifati oshirish, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifati oshirish maqsadida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda oliy ta'lim xizmatlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlari samaradiligini baholash usullarini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasa (OTM)larida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda sun'iy intellektlardan va bugunda amalda keng qo'llanilayotgan Hemis platformasidan unumli foydalanishning strategik yo'nalishlarini aniqlash qaratilgan ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-

¹ https://www.unipage.net/ru/universities_ranking

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida“gi, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-sonli “Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60 sonli “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-sonli “Oliy ta‘lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda oliy ta‘limning iqtisodiyotdagi o‘rni, ta‘lim muassasalarining xizmatlar sohasidagi ahamiyati to‘g‘risida g‘arb iqtisodchilaridan M.E.Porter, J.V.Rivkin, T.Strayk, J.Taylor, A.Parasuraman, V.A.Zeithaml, L.L.Berri, K.K.Tan, S.V.Kek³ va boshqa xorijiy olimlar tomonidan o‘zlarining fundamental asarlarida keng o‘rganilgan. Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini baholashda ilg‘or xorij amaliyotidan foydalanish istiqbollari, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta‘lim xizmatlari sifatiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholashning ilmiy-metodologik asoslari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan I.A.Ilichenko, O.V.Saginoва, V.V.Glushenko, L.G.Milyayeva, I.A.Efimova, L.A.Kamalova, E.Raykova, M.E. Vayndorf-Sisoyeva, M.L. Subocheva⁴ kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

³ Strike T., Taylor J. The Career Persertions of Asademis Staff and Human Resource Dissourses in English Higher Edusation, Higher Edusation Quarterly, 2009, vol. 63, iss. 2, rr. 177–195; Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L., SERVQUAL: A Multirle Ssale for Measuring Consumer Persertions of Servise Quality, Journal of Retailing, vol. 64, Nr 1, s. 12-40, 1988.; Jafari J. Editor’s Page // Annals of Tourism Research. Sresial Number. Ostober/Desember, 1977. r. 8.; Tan K.C., Kek S.W., Servise Quality in Higher Edusation Using an Enhansed SERVQUAL Arroash, Quality in Higher Edusation, vol. 10, nr 1, r. 17-24, 2004.

⁴ Ilichenko, I.A. 2017. The quality of educational services: factors, problems, prospects // Problems of the quality of education. Psychological and pedagogical aspects of the humanitarian culture of society. Management in regional socio-economic systems. Taganrog: Publishing CHOU VO TIUie, 114-148; Saginoва O.V. Competitiveness Indicators of Higher Education Institutions. ETAP:economic theory, analysis, practice. Year 2017, number 4, p. 116-125; Valery V. Glushchenko, Irina A. Presnuhina, and Ekaterina V. Samodelova. (2021). Improvement of service quality in higher professional education by application of lean manufacturing theory in universities. International Journal of Engineering Science Technologies, 5(1), 18-29; Kamalova L. A., Raykova E. The Quality; Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. “Цифровое образование” как системообразующая категория:

Mamlakatimizdagi ta'lim xizmatlarining ayrim jihatlari masalalariga vatandosh olimlarimizdan Y.Abdullayev, Q.X.Abduraxmonov, M.Q.Pardayev, M.M.Muxammedov, G.Axunova, D.X.Aslanova, M.T.Alimova, M.X.Saidov, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, Q.J.Mirzayev, D.Nabiyev, A.Sh.Bekmurodov, T.Z.Teshaboyev, O.S.Qahhorov, A.A.Maxmudov, E.T.Odilov va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan⁵. Shuningdek, mahalliy olimlarning ilmiy izlanish va asarlarida O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy ta'lim xizmatlar bozorining holati, rivojlanish tendensiyalari, ularni boshqarish va moliyalashtirishning ayrim jihatlari, ta'lim xizmatlari sifati va unda raqamlashtirish tizimini joriy etish masalalari tadqiq etilgan⁶. Mazkur tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim xizmatlari rivojlanishining mohiyati, mazmuni va xususiyatlari, ta'lim xizmatlari sifatini va samaradorligini oshirish usullari ochib berilgan bo'lsada, ammo iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida

подходы к определению // Ж. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. – М.: 2018. – № 3. – С. 25-36.

⁵ Abdullaev Yo. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T.: «Fan», 1993. – 240 b.; Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т., Аллахвердиева Л.М. Современный менеджмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. –Т.: ТГЭУ, РЭА, 2006. 88-89 с.; Pardayev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya “Innovatsion rivojlanish nashiryot manba uyi”, 2020. – 256 b.; Muxammedov M.M. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmi rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. Zarafshon.2016. s. 300; Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.; Aslanova D.X. Кластерный подход к повышению качества образования в системе туризма // Сервис. 2018. №3, 58-62с.; Алимova M.T. Эффективный механизм интеграции науки и практики в системе повышения качества образования в сфере туризма // Межд. конф. на тему «Управление социально-экономическими системами: теория, методология, практика» - 2017. – 362-364 с.; Saidov M.X. Узбекистан: инвестиции в человеческий капитал, партнёрства в сфере образования.-М.: Книжный дом газеты «Труд», 2006.-243 с.; Тухлиев И.С. Теоретико-методологические аспекты исследования сферы услуг. / Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Samarqand 2012. 49-516.; Зайналов Д.Р. Услуги и сервис как экономическая категория. // «Сервис» журналы. Самарканд: 2009, 1-сон. 70-77 бетлар; Pardayev M.Q., Mirzaev Q.J., Pardayev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyot, 2014. – 384 bet., Nabiev D. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф... докт. эконом, наук. – Ташкент, 2009. - 48 с; Бекмуродов А.Ш. Информационно-ресурсное обеспечение высшего экономического образования: методика, содержание и техническое обеспечение. – Т.: Экономика, 2009, -205 б.; Teshaboyev T.Z. Oliy o'quv yurtlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo'llari. –Т.: Fan va texnologiya, 2007. 129 b.; Qahhorov O.S. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlash. Monografiya. – T.: Fan, 2011. - 156 b.; Maxmudov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Diss. PhD. – T.: TDIU. 2019. 20-21-b.; Odilov E.T. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T., TDIU. 2012, 26 bet.

⁶ Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati - T.: 2004. – 45 b.; Хамидов Обиджон Хафизович, Современная парадигма образования в условиях цифровой и smart-экономики // Современное образование (Узбекистан). 2020. №4; Вахабов А., Имамов Э. Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. - М. 2007. – 214 с.; Ochilov A. O. The Higher Education Dynamics and Economic Growth: The Case of Uzbekistan //Journal of Management Value & Ethics. – 2017. – Т. 7. – №. 2. – С. 46-53.; Kucharov A.S. Tadbirkorlik sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashda boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - T., 2006. – 40 b.; Nabiev D.X. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari (O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar tizimi misolida) i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T, 2005. – 24 b; Зохидова Ш. Мировые модели системы образования. /Iqtisodiyot va moliya, №5, 2013, 2-6-б.; Eraliev A.O. Ta'lim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (o'rtamaxsus, kasb-hunar tizimi misolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - T.: 2006. - 24 b.

oliy ta'lim xizmatlarining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institutining "Hudud real iqtisodiyotini raqamlashtirishning nazariy va amaliy masalalari" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

"oliy ta'lim xizmatlari", "ta'limni raqamlashtirish" va "raqamli kompetensiya" tushunchalari mohiyati va bog'liqligini o'rganish hamda mualliflik ta'rifini ishlab chiqish;

oliy ta'lim xizmatlarini rivojlanish yo'nalishlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, mohiyati va nazariy yondashuvlarini o'rganish;

oliy ta'lim xizmatlari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'rganish;

respublikada oliy ta'lim xizmatlarining rivojlanish holati, tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish;

oliy ta'lim muassasalari rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish;

oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishni baholash usullarini o'rganish va shu asosda takliflar ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning konseptual yo'nalishlarini o'rganish va oliy ta'lim xizmatlari sohasida kadrlarning raqamli kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarini raqamlashtirish infratuzilmasining rivojlanishini aniqlash va shu asosda takliflar ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish va tavsiya etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlari va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida bilish nazariyasining induksiya va deduksiya, mantiqiy yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, miqdor va

sifat, qiyosiy va omilli tahlil, taqqoslash, monografik kuzatish, statistik metod, sotsiologik so‘rov va empirik kuzatuv tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida inson kapitali samaradorligini bilim va malakaning global oqimlariga bog‘liqligi, ushbu oqimlarni tezlashtirish va kengaytirish, ta‘lim xizmatlarini ustuvor axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog‘lashga asoslangan holda “Virtual Mobility” ta‘limi jarayonini joriy etish, “Global Learning Hub” xorijiy ta‘lim dasturlarini integratsiya qilishga ko‘ra “Raqamli Internatsionalizatsiya Platformasi”ni ishlab chiqish taklifi asoslangan;

oliy ta‘lim xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kadrlarning raqamli kompetensiyalarini baholash raqamli kompetensiyaviy malaka darajalarini «yuqori» ($C=0,63-1,0$), «o‘rta» ($B=0,33-0,62$) va «past» ($A=0-0,32$) guruhlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan hoda baholash va har bir guruh bo‘yicha indikatorlarni tasniflash mezonlariga ko‘ra takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim xizmatlari sifatini baholash yondashuvi ko‘p omilli indeks usuliga ko‘ra raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, ta‘lim dasturlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligi, talabalar va bitiruvchilarning qoniqish darajasi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mezonlar asosida takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida aqlli tizimlarni boshqarish strategiyasi aqlli kampuslar yaratishga ko‘ra ta‘lim muassasalari infratuzilmasini sun‘iy intellekt va buyumlar internetidan foydalangan holda hamda texnologik rivojlangan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadlarini shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta‘lim tizimida xalqaro ta‘limda akademik hamkorlikni kengaytirish va globallashtirish bilimlar almashinuvini ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar asoslab berilgan;

oliy ta‘lim xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kadrlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha takliflar asoslangan;

oliy ta‘lim xizmatlari sifatini oshirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning ta‘lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishda ta‘limning muhim omillaridan bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini zamon talabiga mos shakllantirishda va ta‘lim xizmatlarini baholash yo‘llarini takomillashtirish masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning oliy ta'lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini uslubiy-amaliy jihatdan samarali tashkil qilishga hamda iqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalariga «Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti», «Ijtimoiy soha iqtisodiyoti», «Ta'lim menejmenti», «Bilimlar iqtisodiyoti», «Oliy ta'lim tizimida raqamli boshqaruv» kabi fanlardan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashga xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida inson kapitali samaradorligini bilim va malakaning global oqimlariga bog'liqligi, ushbu oqimlarni tezlashtirish va kengaytirish, ta'lim xizmatlarini ustuvor axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog'lash asoslangan holda "Virtual Mobility" ta'limi jarayonini joriy etish, "Global Learning Hub" xorijiy ta'lim dasturlarni integratsiya qilishga ko'ra "Raqamli Internatsionalizatsiya Platformasi"ni ishlab chiqish taklifi oliy ta'lim muassasalari, xususan akademik mustaqillik berilgan Samarqand davlat universiteti, «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, TATU Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot", ".Bilimlar iqtisodiyoti" kabi fanlar o'quv-uslubiy hujjatlariga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 02/01-01-220-son ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim muassasalarining xalqaro bilimlar almashinuvini ta'minlash hamda talabalar va professor-o'qituvchilarning xalqaro tajriba orttirish salo-hiyatlarini 1,4 martaga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim xizmatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kadrlarning raqamli kompetensiyalarini baholash raqamli kompetensiyaviy malaka darajalarini «yuqori» ($C=0,63-1,0$), «o'rta» ($B=0,33-0,62$) va «past» ($A=0-0,32$) guruhlari bo'yicha tabaqalashtirilgan hoda baholash va har bir guruh bo'yicha indikatorlarni tasniflash mezonlariga ko'ra takomillashtirish taklifi oliy ta'lim muassasalari, xususan akademik mustaqillik berilgan Samarqand davlat universiteti, «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, TATU Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot", ".Bilimlar iqtisodiyoti" kabi fanlar o'quv-uslubiy hujjatlariga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 02/01-01-220-son ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari raqamli kompetensiyalari ko'rsatkichlarining aniqlik darajasini 1,5 martaga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash yondashuvi ko'p omilli indeks usuliga ko'ra raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi, ta'lim dasturlarining ish beruvchilar talablariga muvofiqligi, talabalar va bitiruvchilarning qoniqish darajasi, innovatsion faoliyatni rivojlantirish mezonlar asosida takomillashtirish taklifi oliy ta'lim muassasalari, xususan akademik mustaqillik berilgan Samarqand davlat universiteti, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, TATU Samarqand filiali "Raqamli iqtisodiyot", ".Bilimlar iqtisodiyoti" kabi fanlar

o'quv-uslubiy hujjatlariga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 02/01-01-220-son ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim xizmatlari sifatini doimiy monitoring qilish va rivojlantirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida aqlli tizimlarni boshqarish strategiyasi aqlli kampuslar yaratishga ko'ra ta'lim muassasalari infratuzilmasini sun'iy intellekt va buyumlar internetidan foydalangan holda hamda texnologik rivojlangan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish maqsadlarini shakllantirish asosida takomillashtirish bo'yicha taklif oliy ta'lim muassasalari, xususan akademik mustaqillik berilgan Samarqand davlat universiteti, «Ipak yoli» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, TATU Samarqand filiali “Raqamli iqtisodiyot”, “Bilimlar iqtisodiyoti” kabi fanlar o'quv-uslubiy hujjatlariga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 11-iyundagi 02/01-01-220-son ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim muassasalarining xalqaro standartlarga mos zamonaviy infratuzilmani yaratish (takomillashtirish) va xorijiy ilmiy hamkorliklarni kuchaytirish imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta jumladan, respublika miqyosidagi 4 ta, xorijiy 4 ta va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada 8 ta muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha uning asosiy g'oyalari va mazmunini aks ettiruvchi jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, OAK e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYASINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyasi tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyasi sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari”**ga bag'ishlangan bo'lib, unda iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha yondashuvlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish asosida “oliy ta'lim xizmatlari”, “oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirish” kategoriyalarining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, raqamli ta'lim xizmatlarining turlari va rivojlanishi, oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlar rivojlanishining omillari, xususiyatlari va shart-sharoitlari tasniflangan. Shuningdek, oliy ta'lim xizmatlarini

raqamli rivojlantirishda ilg'or xorij tajribasi va uning amaliyotda qo'llanilishi nazariy jihatdan yoritib berilgan. Mazkur bob bo'yicha tegishli xulosalar ham keltirilgan.

Oliy ta'lim xizmatlari iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning raqamli iqtisodiyotga moslashuvi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Raqamli iqtisodiyot oliy ta'lim tizimiga bir qancha jihatlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi.


Raqamli infratuzilmani shakllantirish – universitetlar va ta'lim muassasalari raqamli platformalar, elektron ta'lim tizimlari va onlayn kurslar orqali ta'lim jarayonlarini avtomatlashtiradi. Ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish – onlayn kurslar, MOOC (Massive Open Online Courses), video-darslar va sun'iy intellektga asoslangan o'quv dasturlari paydo bo'lmoqda. Professor-o'qituvchilarning rolini o'zgartirish – an'anaviy ta'limdan interaktiv va moslashuvchan ta'lim tizimlariga o'tish kuzatilmoqda. Talabalarning raqamli ko'nikmalarini oshirish – zamonaviy ta'lim tizimi talabalarni axborotni qayta ishlash, dasturlash va innovatsion texnologiyalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlarning rivojlanishi bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash, boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirish va talabalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratishda muhim omillardan hisoblanadi. Iqtisodiyotning raqamlashtirishi sharoitida oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilishga majbur bo'lib, bu jarayon raqamli xizmatlarni joriy etish va ularni doimiy takomillashtirish orqali amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida raqamli xizmatlarning keng qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlarning keng ko'lamda joriy etilishi ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini sifat va inklyuzivlik jihatidan boyitish hamda institutsional boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Buning natijasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda raqamli xizmatlar oliy ta'lim tizimida oddiy texnologik vosita sifatida emas, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan strategik infratuzilma elementi sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham ularning rivojlanish shart-sharoitlarini tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Oliy ta'lim xizmatlari milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Bu jarayonda unga esa bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilib, quyidagicha guruhlash maqsadga muvofiq deb topdik (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar⁷

Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi sharoitida oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilishga majbur bo'lib, bu jarayon raqamli xizmatlarni joriy etish va ularni doimiy takomillashtirish orqali

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

amalga oshirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida raqamli xizmatlarning keng qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini yaratadi.

An'anaviy ta'lim tizimi bilan solishtirganda, raqamlashtirishga asoslangan ta'limda raqamli xizmatlar ta'lim resurslarining taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanilish uchun kengroq imkoniyatlarni taqdim qiladi. Elektron hujjat aylanishi, onlayn baholash tizimlari, masofaviy ta'lim platformalari — bularning barchasi inson kapitalidan samarali foydalanishni kuchaytiradi. Quyidagi keltirilgan jadvalda aynan oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirishning eng asosiy xususiyatlari o'rganilgan (1-jadval).

1-jadval.

Oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy xususiyatlari⁸

Xizmatlar tavsifi	Xususiyatlari
Integratsiyalashgan ta'lim tizimlari	Raqamli ta'lim platformalari (LMS – Learning Management System, MOOC – Mass Open Online Courses) orqali o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlash. Ta'lim jarayonida turli raqamli texnologiyalarni birlashtirish va yagona ekotizim yaratish.
Masofaviy va moslashuvchan ta'lim	Har qanday joy va vaqtda ta'lim olish imkoniyati; o'quv dasturlarining individual yondashuv asosida moslashtirilishi.
Ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan tahlili	Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari orqali talabalarining rivojlanishini monitoring qilish; o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun real vaqt rejimida tahliliy hisobotlar yaratish.
Ta'lim sifatining oshishi	Interaktiv o'quv materiallari (video darslar, simulyatsiyalar, VR/AR texnologiyalari) yordamida bilimni chuqurroq o'zlashtirish; talabalarining bilim darajasini aniq baholash tizimlarining joriy etilishi.
Blokcheyn va ma'lumotlar xavfsizligi	Ta'lim hujjatlarining (diplomlar, sertifikatlar) ishonchligini oshirish va qalbakilashtirishning oldini olish; shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash.
O'quv jarayonining avtomatlashtirilishi	Elektron kundaliklar, onlayn reyting tizimlari va avtomatlashtirilgan test tizimlari orqali o'qituvchilarning yuklamasini kamaytirish; chatbotlar va sun'iy intellekt yordamida talabalar savollariga tezkor javob berish.
Raqamli o'quv resurslari va ochiq ta'lim imkoniyatlari	Ochiq ta'lim platformalari orqali istalgan foydalanuvchi uchun bepul yoki pullik ta'lim olish imkoniyati; ta'lim resurslariga 24/7 kirish imkoniyati.
Tashkiliy boshqaruvning samaradorligi	Universitetlar, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarining boshqaruv jarayonlarini raqamli platformalar orqali optimallashtirish; elektron hujjat aylanishi va tezkor axborot almashinuvi orqali boshqaruv tizimini samarali tashkil etish.

Keltirilgan ilmiy yondashuvlar va ta'lim xizmatlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan holda, biz, oliy ta'lim xizmatlari va uni raqamlashtirishga quyidagi ta'riflarni taklif etamiz: Oliy ta'lim xizmatlari – bu davlat va nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish hamda kasbiy

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlovchi intellektual va pedagogik xizmatlar majmuasidir. Oliy ta'lim xizmatlarini raqamlashtirish – bu oliy ta'limda o'quv jarayonini va ta'limga oid boshqaruv tizimlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish, axborot almashinuvini optimallashtirish va individual o'quv yondashuvlarini rivojlantirish jarayoni. Ushbu jarayon ta'lim sifatini oshirish, qulaylik yaratish va ta'lim resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Shunday qilib, ta'lim xizmatlarini raqamlashtirish – bu texnologiyalarni integratsiyalash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, uning uzluksizligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan kompleks innovatsion jarayondir.

Ishning ikkinchi bobi **“O‘zbekiston respublikasida oliy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish holati va ko‘rsatkichlari tahlili”**ga bag‘ishlangan. Ushbu bobda respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati va tendensiyalari, Samarqand viloyatida oliy ta'lim muassasalari faoliyati rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili, oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, jahon tajribasiga asoslangan statistik tahlillar asosida takliflar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimi islohotlari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-PF-sonli Farmonida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish kerakligi ta'kidlangan⁹. Ko‘rinib turibdiki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik masala ekan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish hamda sifatini oshirish uchun oliy ta'lim xizmatlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi va xizmatlar sohasidagi ulushini tahlil qilishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish yo‘lida qator muhim chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan “Raqamli universitet” konsepsiyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi natijasida bir qator oliy ta'lim muassasalarida elektron dekanat, elektron arxiv, onlayn imtixon tizimi va masofaviy ta'limni ta'minlovchi LMS platformalari faoliyat yurita boshladi. Davlat statistikasiga ko‘ra, 2024-yil holatida mamlakatimiz bo‘yicha 100dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida raqamli xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilish darajasi yildan-yilga ortib bormoqda.¹⁰

Bu jarayon har bir OTMning raqobatbardoshligini oshirish, zaif tomonlarini aniqlash va strategik rejalashtirishni ilmiy asosda olib borish imkoniyatini yaratadi. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim xizmatlarining mamlakat YaIMda va xizmatlar sohasidagi o‘rni keltirilgan (2-jadval).

⁹ <https://lex.uz/docs/5841063>

¹⁰ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim xizmatlarining mamlakat YaIMda va xizmatlar sohasidagi o‘rni¹¹

Yillar	YaIM hajmi, mlrd so‘m	YaIM o‘shish sur‘ati, o‘tgan y.ning mos davriga nis. %da	Jami xizmatlar hajmi, mlrd so‘m	Xizmatlarning YaIMdagi ulushi, %	Ta’lim xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m	Ta’lim sohasidagi xizmatlar ning YaIMdagi ulushi, %	Ta’lim sohasidagi xizmatlarning jami xizmatlar sohasidagi ulushi, %
2010	78937	7,1	31464	39,8	763	1,0	2,4
2011	103233	7,5	40529	39,3	1027	1,0	2,5
2012	127590	7,1	50255	39,4	1385	1,1	2,8
2013	153311	7,3	62099	40,5	1793	1,2	2,9
2014	186829	6,9	73601	39,4	2154	1,2	2,9
2015	221351	7,2	86675	39,1	2681	1,2	3,1
2016	255422	5,9	99666	39,0	3263	1,3	3,3
2017	356454	4,4	116902	36,8	4402	1,4	3,8
2018	473653	5,6	151513	35,5	5416	1,3	3,6
2019	594660	6,8	192929	36,2	7165	1,3	3,7
2020	668038	1,6	223050	36,8	8539	1,4	3,8
2021	820537	8,0	272109	36,8	12103	1,6	4,4
2022	995573	6,0	343374	38,3	15858	1,7	4,6
2023	1192163	6,3	462891	43,4	20473	1,9	4,4

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz YaIM hajmi keltirilgan yillar davomida o‘shib borgan. O‘shish sur‘ati 2010-2015-yillarda 7% atrofida bo‘lgan. YaIMning eng yuqori o‘shish sur‘ati 2021-yilga to‘g‘ri kelib, 8%ni tashkil etadi. Eng past o‘shish sur‘ati 2020-yilda bo‘lib, 1,6%ni tashkil etgan. Buning asosiy sababi butun dunyoda bo‘lgan pandemiya hisoblanadi. Jami xizmatlar hajmi ham keltirilgan yillarda oshib borgan. 2023-yilda xizmatlar hajmi 2010-yildagiga nisbatan qariyb 15 baravar oshgan. O‘shish sur‘ati bo‘yicha xizmatlar hajmi 2011-yilda eng yuqori (10%), 2020-yilda esa eng past (1,2%) o‘shish sur‘atiga ega bo‘lgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi ham o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan. 2023-yilda xizmatlar hajmi 2010-yildagiga nisbatan qariyb 15 baravar oshgan bo‘lsa, bu yillar davomida ta’lim xizmatlari hajmi 27 baravarga oshgan. Buni ta’lim sohasidagi xizmatlarning YaIMdagi hamda jami xizmatlar sohasidagi ulushini taqqoslash orqali ham ko‘rish mumkin. Ta’lim sohasidagi xizmatlarning YaIMdagi ulushi 2010-2023-yillar davomida 1,0%dan 1,9%ga oshgan bo‘lsa, ta’lim sohasidagi xizmatlarning jami xizmatlar sohasidagi ulushi 2,4%dan 4,4%ga ko‘paygan.

Demak, jami xizmatlarga nisbatan ta’lim sohasidagi xizmatlar qariyb ikki baravarga oshgan. Bundan ta’lim xizmatlari xizmatlar sohasining eng tez o‘sayotgan tarmoqlaridan biri, degan xulosaga kelish mumkin. Buni mamlakatimizda hozirgi kunda oliy ta’lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

¹¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

Bugungi kunda Samarqand viloyatida OTMLar va ularda ko'rsatiladigan xizmatlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Tadqiqotlarimiz davomida Samarqand viloyatida oliy ta'lim xizmatlari rivojlanishi bilan bog'liq masalalarga ham e'tibor qaratildi. Ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval.

Samarqand viloyatida joylashgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari¹²

№	Ko'rsatkichlar	O'quv yili					
		2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024	2024/ 2025
1.	Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	8	11	12	14	15	16
1.1.	O'sish sur'ati, %	133,3	183,3	200,0	233,3	250,0	266,7
2.	OTMLarida tahsil olayotgan talabalar soni, kishi	34930	41093	54827	77824	85000	92000
2.1.	O'sish sur'ati, %	120,0	141,1	188,2	243,0	257,0	271,0
3.	OTMLari bakalavriaturasiga qabul qilingan talabalar soni, kishi	9870	11819	17772	18356	19200	20000
3.1.	O'sish sur'ati, %	131,7	157,8	237,2	245,0	259,0	270,0
4.	OTMLari magistraturasiga qabul qilinganlar soni, kishi	521	791	1143	1539	1750	1950
4.1.	O'sish sur'ati, %	249,3	378,5	546,9	736,4	850,0	950,0
5.	OTMLarida bitiruvchilar soni, kishi	6869	6842	7165	8528	9000	9500
5.1.	O'sish sur'ati, %	107,0	106,6	111,6	132,9	140,0	150,0
6.	OTMLarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni, (o'quv yili boshida), kishi	3323	3241	3341	3849	4100	4350
6.1.	O'sish sur'ati, %	111,6	108,9	112,2	129,3	136,0	142,0

3-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Samarqand viloyatida joylashgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, viloyatda oliy ta'lim muassasalari va ularda tahsil olayotgan talabalar va magistrlar yildan-yilga oshib bormoqda. 2019/2020 - 2024/2025 o'quv yillari davomida OTMLari soni 8 tadan 16 taga, ya'ni 2 baravarga ko'paygan. OTMLarida tahsil olayotgan talabalar soni 34930 nafardan 92000 nafarga yoki qariyb 2,6 baravarga ko'paygan. OTMLari bakalavriaturasiga qabul qilingan talabalar soni 9870 nafardan 20000 nafarga, ya'ni 2 baravarga, magistraturaga qabul qilinganlar soni esa, 521 nafardan 1950 nafarga 3,7 baravarga ko'paygan. Sohada faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni 2018/2019 o'quv yilida 3323 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yilida 4350 nafarga yetib, 1,3 baravarga ko'paygan. Ushbu holat ta'lim sifatini yaxshilanishini talab qiladi. Bunda malakali pedagoglarni ko'paytirish lozim.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy faoliyat yuritish modeliga chuqur singib bormoqda. Xususan, Samarqand viloyatida joylashgan yirik oliy ta'lim muassasalari — Samarqand davlat universiteti (SamDU), Toshkent axborot texnologiyalari

¹² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>

universitetining Samarqand filiali (TATU SF), hamda Ipak yo‘li xalqaro turizm va madaniy meros universitetida raqamlashtirish ko‘rsatkichlarining dinamik tahlili ularning boshqaruv tizimlarida, o‘quv jarayonida, ilmiy-tadqiqot faoliyatida va ma‘lumotlar boshqaruvida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rsatmoqda. Masalan, elektron hujjat aylanishi, masofaviy ta‘lim platformalari joriy etilishi, axborot xavfsizligi bo‘yicha infratuzilmaviy choralarning kuchaytirilishi va talabalarning raqamli identifikatsiya tizimlaridan foydalana boshlagani – bu jarayonlarning amaliy ifodasidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har bir OTM raqamlashtirishda o‘zining ustuvor yo‘nalishlariga ega bo‘lib, masalan, TATU SFda texnologik innovatsiyalar yetakchilik qilsa, SamDUda ilmiy elektron bazalarning rivojlanishi ustuvor, Ipak yo‘li XTUda esa raqamli turizm ekotizimiga integratsiya asosiy yo‘nalish sifatida ajralib turadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro taqqoslanishi orqali nafaqat raqamlashtirish darajasi, balki har bir oliygohning strategik yo‘nalishi ham aniqroq namoyon bo‘ladi.

4-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida hududlar bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar soni¹³, ming kishi

Hududlar (viloyatlar) nomi	Yillar						2018-2024 y.y. o‘sish, %
	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,5	4,3	5,5	6,5	6,5	7,1	1,6 marta
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	4,8	4,3	4,6	6,4	5,0	7,4	1,5 marta
Buxoro	3,5	3,8	4,8	6,2	6,0	6,3	1,8 marta
Jizzax	2,9	2,9	3,9	3,6	3,8	4,5	2,3 marta
Qashqadaryo	3,8	3,9	5,2	5,9	5,9	5,9	2,0 marta
Navoiy	2,3	2,4	3,1	3,9	3,3	4,0	1,7 marta
Namangan	3,0	3,2	4,1	5,5	5,5	6,1	1,9 marta
Samarqand	6,9	6,8	7,2	8,5	9,0	9,8	1,4 marta
Sirdaryo	1,0	1,0	1,6	2,2	2,0	2,3	2,3 marta
Surxondaryo	2,0	2,1	3,3	3,6	4,0	4,5	2,2 marta
Toshkent	2,7	2,8	4,1	3,7	4,0	6,5	2,4 marta
Farg‘ona	4,6	4,8	5,8	9,3	8,3	7,8	1,7 marta
Xorazm	2,4	2,6	2,9	3,4	3,9	4,3	1,8 marta
Toshkent sh.	26,1	26,1	26,1	27,5	34,4	37,1	1,4 marta
Respublika bo‘yicha	67,4	70,3	70,8	83,9	102,4	112,6	1,7 marta

Respublikamizda keyingi yillarda OTMlarni tamomlayotgan mutaxassislar soni doimiy o‘sib bormoqda. 2018/2019 o‘quv yilida bitiruvchilar soni 67,4 ming kishini, 2023/2024 o‘quv yilida esa 112,6 ming nafarni tashkil qilgan. Respublika miqyosida tahlil qilinayotgan yillarda OTMni bitirganlar soni 1,7 marta o‘sgan.

Tadqiqot olib borish davomida Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan uchta yirik oliy ta‘lim muassasalari: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti (SamDU), Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Samarqand filiali (TATU SF), hamda Ipak yo‘li Xalqaro Turizm Universitetining 2020-yildan

¹³ O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

2025-yilgacha bo'lgan raqamlashtirish jarayonlari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar asosida bu OTMlarning raqamli texnologiyalarni joriy etish sur'atlari va ularning boshqaruv, o'quv hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatlariga ta'siri yoritildi (5-jadval).

5-jadval.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan uchta oliy ta'lim muassasalarining 2020-2025 yillardagi raqamlashtirish darajasi¹⁴ (%)

Yil	SamDU (%)	TATU SF (%)	IpakYo'li XTU (%)
2020	40	55	30
2021	50	63	42
2022	62	72	55
2023	70	80	65
2024	78	86	73
2025	85	90	80

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda Samarqand viloyati OTMlarida raqamlashtirish darajasini o'sishini ko'rishimiz mumkin.

Raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari ma'lumotlar va axborot tizimlari modernizatsiyasi va ta'limda raqamli transformatsiyani o'z ichiga oladi. Bunda zamonaviy IT infratuzilmasini yaratish, bulutli texnologiyalarni joriy etish va axborot xavfsizligini ta'minlash zarurati, oliy ta'lim muassasalari raqamli o'quv dasturlari, onlayn platformalar va virtual sinflarni kengaytirish orqali talabalarga yuqori sifatli ta'lim berish imkoniyatlari ko'zda tutiladi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil va natijalar hamda aniqlangan muammolar mazmuniga ko'ra, ularga yechim sifatida biz "Raqamli internatsializatsiya Platformasi"ni ishlab chiqish taklifini asosladik va dalilladik. Samarqand viloyatidagi OTMlarini raqamlashtirishda hududning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, raqamlashtirishning noyob strategiyalarini ishlab chiqish talab etiladi.

